



## NAVOIYGA QAYTISH NAVOIY OLAMINI YANGIDAN KASHF ETISHNING ZARURATI VA AHAMIYATI

**M.B.Eshniyazova**

[maysaraeshniyazova300477@gmail.com](mailto:maysaraeshniyazova300477@gmail.com)

Samarqand davlat universiteti, Mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya: yoshlarimizga Navoiyni anglash, ulug` adibning insonparvarlik g`oyalarini yosh avlod qalbiga singdirish zarur. Navoiydan insonga muhabbatni, hayotga muhabbatni, futuvvatni, javonmardlik, vafo va sadoqatni o`rganishimiz lozim. Alisher Navoiyning islomga munosabatiga bir nazar tashlaylik, ulug` shoir uchun Olloh – olam yaratuvchisi, olamni yaratishidan maqsad esa – odamni – jami maxluqot gultojini yaratish. Tasavvuf oddiy qilib aytganda Sharq falsafasi bo`lib hisoblanadi. Tasavvuf ta`limotida insoniyat har tomonlama tarbiyalanadi.*

*Abstract: it is necessary for our youth to understand Navoi, to inculcate the humanitarian ideas of the great writer in the hearts of the young generation. From Navoi, we should learn love for people, love for life, courage, youth, loyalty and loyalty. Let's take a look at Alisher Navoi's attitude to Islam. For the great poet, Allah is the creator of the universe, and the purpose of creating the universe is to create a person - the totality of creation. In simple terms, Sufism is Eastern philosophy. Humanity is educated in all aspects in Sufism.*

*Аннотация: нашей молодежи необходимо понять Навои, привить гуманистические идеи великого писателя в сердца молодого поколения. У Навои мы должны учиться любви к людям, любви к жизни, мужеству, молодости, верности и преданности. Давайте посмотрим на отношение Алишера Навои к исламу. Для великого поэта Аллах является творцом вселенной, а цель создания вселенной - создание человека - совокупности творения. Проще говоря, суфизм – это восточная философия. Человечество во всех аспектах образовано в суфизме.*

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, qalb, islom, maqsad, shoir, sharq falsafasi, adabiyot.

**Keywords:** Sufism, soul, Islam, purpose, poet, Eastern philosophy, literature.

**Ключевые слова:** Суфизм, душа, ислам, цель, поэт, восточная философия, литература.

Yurtboshimiz ta`kidlaganlaridek, adabiyot, so`z san`ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat vaadolat jarchisi bo`lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma`naviyatimizning g`oyat muhim va uzviy qismi bo`lgan adabiyotni rivojlantirish, yozuvchi va shoirlarning xizmatini qadrlashga katta e`tibor berilayotgani diqqatga sazovordir. Shuningdek, yoshlarimizga Navoiyni anglash, ulug` adibning insonparvarlik g`oyalarini yosh avlod qalbiga singdirish zarur. Chunki bugungi kunda insonning aqliy kashfiyoti behisob hayratlanarli bo`lsa ham, insoniyat ma`naviyat kamoloti jihatidan juda ilgarilab ketgan yo`q. Agar biz Navoiy ma`naviyati cho`qqisidan qaraydigan bo`lsak, anchagina orqada qolib ketganimiz ma`lum bo`ladi. Shuning uchun Navoiyga qaytish Navoiy olamini yangidan kashf etishning zarurati va ahamiyati katta. Navoiydan insonga muhabbatni, hayotga muhabbatni, futuvvatni, javonmardlik, vafo va sadoqatni o`rganishimiz lozim. Alisher Navoiy asarlarida hamma narsa inson qalbi go`zalligi, inson axloqi kamoloti nuqtai nazaridan olib qaraladi.

Alisher Navoiyning islomga munosabatiga bir nazar tashlaylik, ulug` shoir uchun Olloh – olam yaratuvchisi, olamni yaratishidan maqsad esa – odamni – jami maxluqot gultojini yaratish. Buyuk mutafakkir mana shuni to`g`ri anglashni iymonning asosi deb biladi va islomga ulug` shoir ma`rifat deb qaraydi, ya`ni dunyonni Olloho ni va o`zlikni bilish ma`rifati deb biladi. Tasavvuf oddiy qilib aytganda Sharq falsafasi bo`lib hisoblanadi. Tasavvuf ta`limotida insoniyat har tomonlama tarbiyalanadi. Shuningdek, tasavvuf bir tomonidan din va shariat, ikkinchi tomonidan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog`liq holda rivojlanib kelgan.

Tasavvufning Sharqda keng tarqalishiga sabab uning arab, fors va turkiy tillarda buyuk bir she`riyatni vujudga keltirishidir. VIII-IX asrlarda Robiya Adaviya, Mansur Xalloj singari ulug` so`fiylar ijodi bilan boshlangan so`fiyona XII

asrlarga kelib katta bir adabiyotga aylandi, o`ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllana boshlandi. Olimlar tasavvufning adabiyot bilan yaqinlashish sabablarini ko`proq so`fiylarning raqs-u samo majlislari bilan bog`liq deb ataydilar. Biroq aytish kerakki, sabab faqat shundan iborat emas. To`g`ri, tasavvuf shayxlari muridlariga ta`sir etish uchun ruboiy, g`azal kabi kichik she`riy janrlardan foydalanganlar. Ba`zan o`zlari so`fiyona g`oyalarga mos asarlar ijod qilib, ko`p hollarda xalq orasida yurgan og`zaki ijod namunalari va mashhurlarning she`rlaridan foydalanib, suhbatlarini qizdirganlar, so`zlariga yangi ma`no berib, so`fiyona g`oyalalar ruhida talqin va tafsir etganlar. O`z o`rnida adabiyot ham tasavvufga qarab intilgan. Tasavvufiy g`oyalalar keng tarqalgandan keyin u ba`zi shoirlar qalbini rom etgan. Tasavvufning pok ilohiy ishq haqidagi, haq va haqiqat, chin insoniy xislatlar haqidagi g`oyalari she`riyat g`oyalalariga aylanadi – shoirlar qizg`in ruh, ko`ngil amri bilan irfoniy g`oyalarni qo`llaydilar. Chunki inson qalbiga yo`l badiiy adabiyot orqali topiladi. Tasavvufning behudlik va ishq, soflik,adolat va haqiqat timsoli – Mutloq Ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga qattiq ta`sir etdi. Insoniyat g`ami bilan qalbi dardga to`lgan isyonkor ruhdagi shoirlarni bir ohanraboday o`ziga tortib o`rtanishli, his-hayajonga to`la, ajoyib she`riyatni hayotga tatbiq etadi. Bu yo`nalishda ijod qilayotganlarni so`fiy shoirlar, adabiyotini esa so`fiyona adabiyot deb yuritish an`anaga aylanadi. So`fiyona adabiyotning tasvir mavzusi tariqat yo`li bilan tiklanayotgan va tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan inson bo`lib, tasavvufiy adabiyotda mana shu inson tuyg`ulari, kechinmalari, tushunchasi tasvir etgan. Tasavvufiy asarlar to`rtliklar, g`azallar, ruboiy kabi janrlardan tortib hatto dostonlargacha yozila boshlandi. Bu esa tasavvufiy adabiyotning qanchalik keng quloch yoyganini ko`rsatadi.

Tasavvufda insonning ma`naviy kamolotga yetkazuvchi eng yuqori bosqich haqiqat bo`lsa, uning boshlanishi shariatdir. Undan keyingi bosqich esa Alloh ishqini tomon olib boradigan yo`l ma`nosini o`zida mujassam etgan tariqatdir. Keyingi bosqich esa Allohnini tanish bosqichi bo`lib, u ma'rifat deb nomlanadi. Adib esa tariqatga shariatsiz kirib bo`lmasligini aytib, bu yo`lda siyosatli pir, ya`ni ustoz lozimligini ta'kidlaydi. Ulug` shoir bu bilan tasavvuf Qur'onini karim va hadisi

sharifning umumbashariy g'oyalarini o'zida mujassam etganligi, muqaddas dinimizda insonni yuksak axloqiy fazilatlarning egasi bo'lishga da'vat etilganligiga ishora qiladi. Tariqatda shunchaki shogird tushishning o'zигина kifoya qilmaydi. Buning uchun solikda o'z maqsadiga nisbatan komil ishonch bo'lishi va bu yo'lga sobit e'tiqod bilan kirishib, har qanday mashaqqat-u qiyinchiliklarni yengib o'tishga davat etiladi.

Tasavvuf deyilganda, bugun har kim o'z saviyasi va nuqtayi nazari darajasida fikrlaydi va so'z aytadi. Ammo bu fikr va mulohazalarning aksariyatida umumiy bir o'xshashlik bor. Bu o'xshashlik esa ilmning tasavvufdagi o'rni, mavqeい va tasavvuf ta'limotining ilm-fan taraqqiyotidagi xizmatlarini hisobga olishga borib taqaladi. Ko'п hollarda tasavvuf deganda faqat dinni yoki din yo'liga kirgan kishilarni tushunishadi. Chunki tarixdan ma'lumki, tasavvufiy ijodkorlarning ko'pchiligi ham diniy, ham dunyoviy bilimlarning egalari bo'lishgan. Bundan ko'rindaniki, tasavvuf shunchaki din emas, u ilm-ma'rifikat orqali insonga o'zligini tanishtirishdir. Alloho ni tanish o'zini tanish hisoblanadi. Adib Ahmad Yassaviy hikmatlaridan biri misolida fikrimizga oydinlik kiritamiz:

Ma'rifatni bo'stonida jonin burg'on,  
Muhabbatning maydonida bosh o'ynog'on,  
Haqiqatning dunyosidin gavhar olg'on,  
G'avvos yanglig' ul dunyodin chiqmas bo'lur.

Keltirilgan baytdan ma'lum bo'ladiki, jon-jahdi bilan ilm-ma'rifikatni o'rgangan va shu yo'lda borini ayamagan inson asl haqiqatni anglay oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: «Маънавият», 2008. 176 б.
2. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик, 10-том. Тошкент: «Фан», 1992, 447 б.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент: «Чўлпон», 2007. 160 б